



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati”

aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2024-yil 29-may

Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligiga bag'ishlangan matbuot anjumani to'g'risida

2024-yil 29-may kuni “NKMK” AJ Markaziy kon boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligiga bag'ishlab ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun press-tur va matbuot anjumani o'tkazildi.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat O'zbekiston sanoatida, balki jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalar qatorida o'z o'rni va salohiyatiga ega yirik korxonadir.

Alohibda ta'kidlash kerakki, **21 ming nafardan ortiq ishchi-xodim** mehnat faoliyatini olib borayotgan Markaziy kon boshqarmasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha kombinatning eng yirik bo'linmasidir. Keyingi yillarda yangi gidrometallurgiya zavodlarini qurish, yangi konlarni o'zlashtirish, amaldagi kon va zavodlarning quvvatlarini oshirish bo'yicha yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishi kon boshqarmasida ishlab chiqarish sur'atini oshirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yetti yilda investitsion loyihalar asosida 5, 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodi ikkinchi navbatni ishga tushirilishi, “Muruntov”, “Auminzo-Amantoy”, “Balgantov”, “Tomdibuloq”, “Turbay” konlarida olib borilgan ishlar Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun yangi imkoniyat, istiqbollarni yaratdi.

Buning natijasida Markaziy kon boshqarmasida tog' jinsini qazib olish 2017-yilda **75,7 mln kubometrni** tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich **166,1 mln kubometrga** teng bo'ldi. Shuningdek, ma'danni qayta ishlash bo'yicha ham katta natijalarga erishildi. Xususan, 2-GMZ, Oltinni uyumda ishqorlash sexida 2017-yilda **62 mln tonna** ma'dan qayta ishlangan bo'lsa, investitsion loyihalar asosida 5 va 7-GMZ, 2-GMZ ikkinchi navbatni ishga tushirilishi hisobiga 2023-yilda bu ko'rsatkich **99,3 mln tonnaga** yetkazildi.

Press-tur davomida OAV vakillari va jurnalistlar jahonga mashhur "Muruntov" oltin konida bo'lib, qazish jarayoni, konni o'zlashtirishning 5-navbatni doirasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar.

"Muruntov" koni geologlar tomonidan eng yirik oltin resurslariga ega kon sifatida e'tirof etilib, uning resurslari **4,5 ming tonnadan ortiq** baholangan. Oltin tarkibli ma'danni qazib olish bo'yicha dunyodagi eng yirik konlardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtida konning uzunligi **5,5 kilometr**, kengligi **3,4 kilometr**, o'rtacha chuqurligi **650 metrni** tashkil etadi. Keyingi yillarda konni o'zlashtirishning 5-navbatni bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsion loyiha doirasida keng qo'lamlı ishlar olib borilmoqda. Xususan, "Komatsu", "Caterpillar", "Hitachi", "Libherr" kabi yetakchi xorijiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan og'ir yuk ko'taruvchi avtoag'dargichlar, gidravlik ekskavatorlar va boshqa kon texnikalari olib kelinib, konda ish unumdarligini oshirish, sarf-xarajatlarni qisqartirish imkonini bermoqda.

2-gidrometallurgiya zavodi kombinatning eng yirik va yetakchi korxonasi hisoblanadi. Mazkur zavodda tarkibida qimmatbaho metall bo'lgan ma'danni maydalashdan boshlab, undan tayyor mahsulot ajratib olib, oliy sifatli quyma oltin hosil qilishgacha bo'lgan texnologik jarayonlar to'liq amalga oshiriladi. **1969-yil 21-iyulda** 2-GMZda "Muruntov" konida qazib olingan ma'dandan **11 kg. 820 gr.** og'irlikdagi birinchi oltin yombisi olindi. Bugungi kunda zavodda yiliga **50 mln tonnadan ortiq** ma'dan qayta ishlanmoqda. Zavod zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, korxonada ishlab chiqarishning raqamlashtirilgan boshqaruvi markazi faoliyat ko'rsatmoqda. 2-GMZda ishlab chiqarilayotgan kombinatning "999,9" soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi. Joriy yilda korxona jamoasi zavod ishga tushurilganligining 55 yilligini nishonlamoqda.

Markaziy kon boshqarmasining Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati ham 55 yilligini nishonlamoqda. **1969-yil 27-may kuni** ushbu korxona tomonidan xizmat ko'rsatiladigan "**Amudaryo-Zarafshon**" suv quvurining **1-yo'nalishi** foydalanishga topshirilgan edi. Bugungi kunda 1 ming kilometrga yaqin suv quvurlari orqali Amudaryo daryosidan Zarafshon va Uchquduq shaharlari, "Bessopan", "Muruntov", "Dovgiztov", "Auminzo-Amantoy" sanoat maydonlaridagi ishlab chiqarish korxonalariga texnik va ichimlik suvi yetkazmoqda.

Shuningdek, OAV vakillari va jurnalistlar uchun 7-gidrometallurgiya zavodi majlislar zalida matbuot anjumani tashkil etildi.

Matbuot anjumanida mutaxassislar tomonidan ta'kidlanganidek, mazkur zavod zamonaviy texnologiyalar asosida texnogen, ya'ni, avval ishlangan chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha dunyodagi eng yirik korxonalardan biri hisoblanadi. Texnogen chiqindilarni qayta ishlashning muhim jihatlaridan biri, bu - ma'danni qazib olish, texnologik maydalash, saralash va tashish uchun xarajatlarning yo'qligidir. Bunday choralar zavodda ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini sezilarli darajada pasaytirishga olib keldi va yiliga **16 million tonna** texnogen ma'dan qayta ishlanib, mahsulot olinmoqda.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlar savollariga atroficha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

"NKMK" AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: **+99879 227-75-88, 227-74-73**

"NKMK" AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

"NKMK" AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc

Ma'lumot uchun:

"Navoiy kon-metallurgiya kombinasi" aksiyadorlik jamiyati ("NKMK" AJ) jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari to'liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir. "NKMK" AJning "999,9" soqlikdagi oltin quymalari jahoning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi.